



IQLIM O'ZGARISHI: AVVALGI VA HOZIRGI IQLIM HOLATI, SABABLARI, OQIBATLARI VA INSONIYAT OLDIDAGI GLOBAL TAHDIDLAR

Muallif: Nurmamatova Mohinur Shuxrat qizi

O'zDJTU talabasi

Ilmiy rahbar: Isayeva Gulora Faxriddinovna

ANNOTATSIYA: Mazkur ilmiy maqolada iqlim o'zgarishining avvalgi va hozirgi holati global miqyosda hamda O'zbekiston hududi misolida tahlil qilinadi. Iqlim o'zgarishining asosiy sabablari, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, global isishning suv resurslari, qishloq xo'jaligi va inson salomatligiga ta'siri ochib beriladi. Maqola iqlim muammolariga nisbatan ekologik ongni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, global isish, issiqxona gazlari, ekologiya, O'zbekiston iqlimi, suv tanqisligi.

KIRISH

Iqlim o'zgarishi XXI asrning eng dolzarb global muammolaridan biridir. So'nggi o'n yilliklarda Yer sharining o'rtacha harorati tez sur'atlarda oshib bormoqda. Buning natijasida muzliklar erimoqda, dengiz sathi ko'tarilmoqda, qurg'oqchilik va tabiiy ofatlar soni ortmoqda. Ushbu jarayonlar nafaqat tabiiy muhitga, balki inson hayoti, iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi muammosi global miqyosda dolzarb bo'lib, uni hal qilish xalqaro hamkorlikni talab qiladi. O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmagan.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi iqlim o'zgarishining asosiy sababi inson faoliyati bilan bog'liqdir. Sanoatlashuv, avtomobillar sonining ko'payishi, elektr energiyasini ishlab chiqarishda ko'mir, neft va gazdan foydalanish natijasida atmosferaga katta miqdorda karbonat angidrid (CO₂), metan (CH₄) va boshqa



issiqxona gazlari chiqarilmoqda. Bu gazlar atmosferada to'planib, Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer yuzasida ushlanib qolishiga sabab bo'ladi. Natijada issiqxona effekti kuchayib, global harorat oshadi. Shuningdek, o'rmonlarning kesilishi karbonni yutuvchi tabiiy muhitning kamayishiga olib keladi. Avvalgi davrlarda iqlim o'zgarishlari asosan tabiiy omillar – vulqon faolligi, Quyosh faolligi va okean oqimlari bilan bog'liq bo'lgan. Ular sekin va barqaror kechgan. Yer sharida fasllar aniq ajralgan, ob-havo nisbatan muvozanatda bo'lgan. Hozirgi davrda esa iqlim o'zgarishi keskin va tezkor xarakter kasb etmoqda. Global haroratning oshishi muzliklarning tez erishiga, dengiz sathining ko'tarilishiga va ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishiga olib kelmoqda. O'zbekiston hududida ham bu jarayon yaqqol sezilmoqda. Yozlar avvalgidan ko'ra issiqroq va uzoq davom etmoqda, qishlar esa notekis kechmoqda. Qurg'oqchilik, suv tanqisligi, cho'llanish va sho'rlanish kuchaymoqda. Ayniqsa, Orol dengizi fojiasi mintaqadagi iqlim muammolarining yorqin namunasidir.

Iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, inson salomatligi va iqtisodiyotga katta zarar yetkazmoqda. Suv resurslarining kamayishi sug'oriladigan yerlar qisqarishiga olib kelmoqda. Issiq to'liqlari yurak-qon tomir kasalliklari, nafas yo'llari muammolarini ko'paytirmoqda. Ekstremal ob-havo hodisalari — toshqinlar, dovullar, qurg'oqchiliklar — iqtisodiy zarar va ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirgi iqlim o'zgarishi tarixiy davrlardagi tabiiy o'zgarishlardan keskin farq qiladi. Bu jarayon tez, xavfli va asosan inson faoliyati natijasidir. Iqlim muammosini hal qilish uchun ekologik mas'uliyat, ilmiy yondashuv va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Har bir inson atrof-muhitni asrashga o'z hissasini qo'shishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

IPCC. Climate Change 2023: Synthesis Report.

United Nations. Climate Change and Sustainable Development.

Stern, N. The Economics of Climate Change. NASA. Climate Change